

Yapon biznes muloqotida 宜しくお願ひします [Yoroshiku onegai shimasu] klishesining o‘ziga xos ahamiyati

Mirsadikova Shirin Mirzaitovna

Email: shirin.mirsadikova.uz@gmail.com

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Sinxron tarjima (yapon tili)
yo ‘nalishi magistratura 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yapon biznes muloqotida ko‘p qo‘llaniladigan klishe haqida umumiy tushuncha, unga bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar hamda qo‘llanilish uslublarining o‘ziga xosligi, shu mavzuga doir bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, yapon biznes muloqotining o‘ziga xos tomonlari haqida izlanishlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Yapon biznes muloqoti, madaniyat, zamonaviy lingvistik, tarjimashunoslik, klishe, tadqiqot, termin, tarjima.

Characteristic aspect of cliché 宜しくお願ひします [Yoroshiku onegai shimasu] in Japanese Business communication

Abstract. This article describes the phenomenon of using 宜しくお願ひします [Yoroshiku onegai shimasu] in Japanese Business communication, one of the main units of lingvoculturology, its introduction into science, research conducted by various linguists in this section, and their views. Also, some conducted research works in specific aspects of Japanese Business communication.

Keywords: Japanese business communication, culture, modern linguistics, translation studies, cliché, research, the term, translation.

Klishe – so‘zi (fransuzcha cliché – suhbatdagi qolip so‘zlar). Mashhur rus tilshunos olim Yartsevaning “Katta ensiklopedik lug‘ati” da ta‘kidlab o‘tilgan.¹

¹ Yarseva L. Katta ensiklopedik lug‘at: Tilshunoslik. – M.: Nauka, 1998. – B. 229.

Yapon biznes muloqotida klishelar, hamkasblar, rahbar, hizmatchilararo ishlatiladigan, o‘z xususiyatlariga ega, biroq o‘zbek yoki boshqa tilda aks etilmagan, tashqi mulohazalarda ko‘p qo‘llaniladigan ifodalar bo‘lishi mumkin. Bu klishelar orqali insonlar odatda ma‘lum bir mavzuni, tushunchani yoki fikrni ifodalashadi. Bundan tashqari, klishe insonlar o‘rtasida aloqalarni yoki tajribalarni batafsil ifodalay olmagan, umumiy va oddiy bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmalari orqali fikrni izohlashda ham ishlatiladi.

Shuningdek, ushbu iboralar ko‘p so‘zlovchilar tomonidan birlik sifatida tan olinadi. Klishening eng maqbul harakteristikasi bu uning haddan tashqari ishlatilganligidir: bu jihat juda muhim sanaladi, ammo sub‘yektiv bo‘lganligi sababli, uni aniqlash qiyinroq. Boshqa so‘z birikmali iboralar leksikaning oddiy qismi sifatida qabul qilinadi, klishe iboralar esa formulali, eskirgan, g‘ayrioddiy sifatida belgilanadi.

Yapon madaniyatidagi ijtimoiy muloqotning o‘ziga xos taraflari, ya‘ni xushmuomalalik qoidalarini anglashda klishelarning ahamiyatini alohida ta‘kidlash kerak. Yaponiyada insonlar o‘rtasida to‘g‘ri muomalaga kirishish printsiplari va tavsiyalari tadqiqot natijalari asosida aniqlandi. Mazkur mavzu “Xushmuomalalik masalalari” jahon tilshunosligi, ayniqsa. Yapon, xitoy tilshunosligida 1920-yillardan boshlab, jahon tilshunosligida 1960-yillardan beri “xech eskirmaydigan” dolzarb mavzu va qizg‘in baxs sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Jahon olimlari tomonidan shu kungacha amalga oshirilgan tadqiqot mualliflaridan Kanadalik Erving Goffman² birinchi marta face tushunchasini ilgari suradi. Amerikalik Brown va Britaniyalik Levinson³ xushmuomalalikda ijobiy (ma‘qullanishga ega bo‘lgan ehtiyoj) va salbiy xushmuomalalik (bosim o‘tkazmaslikga ega bo‘lgan ehtiyoj) masalalari nazariyasini yaratdilar.

Yapon tilida xushmuomalalikni ifodalovchi klishelar odatda so‘zlovchi tomonidan tashakkur, iltimos, kamtarlik, mulozamat qilinayotgan hollarda qo‘llaniladi. Yapon biznes muloqotida eng ko‘p qo‘llanuvchi klishelardan biri bu

² Goffman, E. International ritual:Essays in face-to-face behaviour. New York Pantheon Books. 1967

³ Brown, P., & Levinson, S. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge, MA: Cambridge University Press. 1987

宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] iborasidir. 宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] tarkibidagi 宜しく [yoroshiku] sintaktik jihatdan bir qo‘shimcha hisoblanib, “yaxshi, tasdiqlangan, kerakli” degan ma‘noni anglatadi. 願います [Onegai shimasu] お [O] (odoblilik prefiksi), 願 [negai] (istak va xohishni bildiruvchi ot) dan iborat. する [suru] umumiy fe‘lining flektiv shakli bo‘lgan し [shi] va ます [masu] odobli yordamchi fe‘l qismidan iboratdir. Bu iborani tarjima qilish mumkin, biroq o‘zbek tilida biroz g‘aliz tarjimani keltirib chiqadi. “Men sizdan (kimdirga/bir narsaga) ma‘qullangan holda g‘amxo‘rlik qilishingizni iltimos qilaman.” Shu sababli, 宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] kontekstga va holatga qarab tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda tarjima qilinmasligi ham mumkin.

宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] nutq ifodasi bo‘lsa-da so‘rov o‘z-o‘zidan noaniqdir va uni ifodalash yoki tushunish usuli kontekstga bog‘liq hisoblanadi. Jordan⁴ (o‘zi yoki bir guruh ichidagi jamoa a‘zosi uchun tegishli masalani ko‘rib chiqish, yordam so‘rash yoki biror bir xizmatni iltimos qilib so‘rashda umumiy ma‘noda ishlatilishini tushuntiradi. Mizutani esa⁵ 願います [Onegaishimasu] vaziyatga qarab turli xil hollarda: Masalan, do‘konda xizmatchi yoki ofitsiantni chaqirganda “iltimos, buni nazoratingizga oling” degan ma‘noni anglatganda, yoki davlat idorasiga ariza kabi hujjatlarni topshirishda, shuningdek, biznes muhokamasini yakunlayotganda ham ishlatilishini aytib o‘tgan.

Ohso esa⁶, formula o‘tinish, yolvorish holatlarining uslubiyashtirilgan shaklidir deb ta‘riflaydi: o-negai-suru (sizdan iltimos qilaman). Biroq, “yolvorish” bu “biror narsa uchun kamtarlik bilan birovdan astoydil so‘rash”⁷ degan ma‘noni anglatadi, shuning uchun bu boshqa: tinglovchining xayrixohligiga qarab, kamtarlik bilan qo‘llaniladigan shakl deyiladi.

⁴ Jordan, E. Japanese : The Spoken Language. Part 1 . Tokyo : Kodansha International. 1987.

⁵ Mizutani, O., & Mizutani, N. Nihongo Notes : Speaking and Living in Japan. Tokyo : The Japan Times. 1977

⁶ Ohso, Mieko (1983). Invitation, polite order, personal request and begging. In Papers in Japanese Linguistics 9. Tokyo: Kurosio Shuppan, -P. -141—150.

⁷ Catherine Soanes. Oxford Dictionary of English. Oxford University Press, Oxford. 2003

宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] iborasi Yaponiya jamiyatidagi o‘zaro munosabatlarda keng tarqalgan bo‘lishi mumkin, ammo bu ibora formulaning nutq hodisalariga taalluqli emas, masalan, katta auditoriya oldida nutqda o‘zini tanishtirishda va ularga tanishtiruv sifatida murojaat qilingan ijtimoiy kuchga ega bo‘lgan shaxslar (masalan, talabaning onasi formulani ta‘limda bolasiga g‘amxo‘rlik qilishini o‘qituvchiga aytadi). Masalan:

A: 太郎君が大変だと思えますが、よろしく願います。

B: こちらこそよろしく願います。

A: [Taroukunga taihendato omoimasuga, yoroshiku onegaishimasu.]

B: [Kochirakoso yoroshiku onegaishimasu.]

Ya‘ni yuqoridagi misolda ona o‘z farzandini o‘qituvchiga topshirib, unga g‘amxo‘rlik qilishini iltimos qilayotgani ta‘kidlanadi. Bunga javoban o‘qituvchi ham 宜しく願います [Yoroshiku onegaishimasu] iborasini qo‘llaydi.

宜しく願います [Yoroshiku onegaishimasu] - o‘zini tanishtirishda nutqining oxirida qo‘llaniladi. Masalan:

A: 初めまして。ABC 会社のロラと申します。宜しく願います。

A: [Hajimemashite. ABC kaishano Rorato moushimasu. Yoroshiku onegaishimasu.]

B: ミラと申します。こちらこそよろしく願います。

B: [Mirato moushimasu. Kochirakoso yoroshiku onegaishimasu.]

Ayniqsa, u bir nechta tinglovchilar bilan ifodalanganda ko‘proq formulali bo‘ladi. Bunday vaziyatda qarzdorlik hisini keltirib chiqarishi ehtimoldan yiroq emas, chunki qarz - bu ma‘lum bir shaxsga qaratilgan narsa (keyinroq qaytarilishi kerak bo‘lgan) va shunga qaramay formula bu vaziyatda hech qanday qarzdorlikni ko‘rsatmaydi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, 宜しく願います [Yoroshiku onegai shimasu] iborasi nafaqat biznes muloqotda balki tanishuv so‘nggida, suhbatdoshdan nimanidir iltimos qilayotganda, mulozamatda qo‘llaniladi va u muhim ahamiyatga ega ekanligini e‘tirof etishimizga imkoniyat beradi.

[Yoroshiku onegai shimasu] iborasining oʻzbek tilida tarjimasi hali ham tilshunoslar tomonidan oʻrganilib bormoqda va bu mavzu yapon tili tilshunoslari uchun dolzarb mavzulardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yarseva L. Katta ensiklopedik lugʻat: Tilshunoslik. – M.: Nauka, 1998
2. Goffman, E. International ritual:Essays in face-to-face behaviour. New York Pantheon Books. 1967
3. Brown, P., & Levinson, S. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge, MA: Cambridge University Press. 1987
4. Jorden, E. Japanese : The Spoken Language. Part 1 . Tokyo : Kodansha International. 1987
5. Mizutani, O., & Mizutani, N. Nihongo Notes : Speaking and Living in Japan. Tokyo : The Japan Times. 1977
6. Ohso, Mieko. Invitation, polite order, personal request and begging. In Papers in Japanese Linguistics 9. Tokyo: Kurosio Shuppan, 1983 y. -P. - 141—150.
7. Catherine Soanes. Oxford Dictionary of English. Oxford University Press, Oxford. 2003